



UDK:811.512.133'373.45:655

Mexrinisa XOLMURODOVA,

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

F.f.d, professor L.Raupova taqrizi asosida

O'ZBEK KINOQISSALARIDA UCHROVCHI VERBAL VA NOVERBAL TIL BIRLIKLARI

Annotatsiya

Tilni o'rganishda, nolisaniy vositalarni qo'llashda milliy o'ziga xosliklar ko'p kuzatiladi. Chunki, har bir tilning o'ziga xos bo'lgan, mulqot jarayonida verbal birliklarga qo'shimcha vositalar – mulqotning noverbal vositalari mavjud bo'lib, ularning milliy-madaniy, urfiy, diniy, mental va jinsiy xususiyatlarini e'tiborga olish nutqiy mulqotning to'g'ri yuzaga chiqishida asosiy omillardan sanaladi. Har bir tilda nutqiy aktda so'zlovchi shaxsning nutqi ufurib turadi.

Kalit so'zlar: Lisoniy, nolisaniy, noverbal, verbal, nutqiy akt, urf-odat, mentalitet, ma'no, mulqot.

ОБЩИЕ ВЕРБАЛЬНЫЕ И НЕВЕРБАЛЬНЫЕ ЯЗЫКОВЫЕ ЕДИНИЦЫ В УЗБЕКСКИХ ФИЛЬМАХ

Аннотация

Национальные особенности часто наблюдаются в изучении языка и использовании неязыковых средств. Поскольку каждый язык имеет свои собственные, в процессе общения к речевым единицам появляются дополнительные средства – невербальные средства общения, а учет их национально-культурных, традиционных, религиозных, психических и половых особенностей является одним из основных факторов правильного возникновения речевого общения. В каждом языке реч говорящего разыгрывается в речевом акте.

Ключевые слова: Языковой, невербальный, вербальный, речевой акт, традиция, менталитет, смысл, общение.

COMMON VERBAL AND NON-VERBAL LANGUAGE UNITS IN UZBEK FILMS

Annotation

National characteristics are often observed in language learning and the use of non-linguistic means. Since each language has its own, in the process of communication, additional means appear in addition to speech units - non-verbal means of communication, and taking into account their national-cultural, traditional, religious, mental and sexual characteristics is one of the main ones. factors for the correct occurrence of verbal communication. In every language, the speaker's speech is played out in a speech act.

Key words: Linguistic, nonverbal, nonverbal, verbal, speech act, tradition, mentality, meaning, communication.

Kirish. Tilni o'rganishda nutqiy mulqotning ajralmas uzviy qismi sifatida xizmat qiluvchi "kommunikatsiyaning atributi" bo'lgan imo-ishoralarni o'rganish ham ahamiyatli sanaladi. Chunki, har bir tilning o'ziga xos bo'lgan, mulqot jarayonida verbal birliklarga qo'shimcha vositalar – mulqotning noverbal vositalari mavjud bo'lib, ularning milliy-madaniy, urfiy, diniy, mental va jinsiy xususiyatlarini e'tiborga olish nutqiy mulqotning to'g'ri yuzaga chiqishida asosiy omillardan sanaladi.

Nolisaniy vositalarni qo'llashda ham milliy o'ziga xosliklar ko'p kuzatiladi, Jumladan, "shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xarakterga ega bo'lib, milliy xususiyatlar kasb etishi mumkin. Chunki u jamoa tomonidan ma'lum ma'noni ifodalash simvolidir, Boshqa bir jamoada esa bu ishora yo hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi yoki boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'kidlash joizki, "Hech bir tilni "til egasi"dan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganib bo'lmaydi. Chunki har bir nutqiy aktda so'zlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Struktur tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonini bartaraf qilish uchun hozirgi kunda antropolingvistika rivojlana boshladi" [11].

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan bo'lgan lingvokulturologiya va lingvoolkashunoslikning tarkibiy qismi paralingvistikadir [7]. Paralingvistika nutq aloqasini to'ldirib, izohlab keluvchi, axborot uzatuvchi, fikr ifodalashda yordamchi vosita bo'luvchi tilshunoslik sohasidir [8].

Inson fikr ifodalashda tildan foydalanar ekan, ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida tilga yondosh bo'lgan yordamchi (noverbal) vositalardan foydalanadi. Noverbal vositalar har bir kishilik jamiyatida kommunikatsiyada tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi va to'ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo'lgan. Noverbal vositalar mulqot bilan birga fikr, xabar, maqsadni ifodalashda qatnashuvchi imo-ishora, ohang, mimika, gavda harakatlari kabi vositalarni o'rganadigan soha hisoblanadi. Ular sharoitga qarab nutqni ma'lum meyorga keltirish, xususan, ixchamlashtirish, adresantning maqsadini aniq ifodalash vazifasini bajaradi.

Biror ma'noni aniqroq ochish, maqsadni ifodalash vaqtida ko'pincha aytilishi lozim bo'lmagan "ortiqcha" til birliklari uchraydiki, mana shu til birliklarining qisqarishi evaziga nutqiy mulqotda shu kontekst uchun ularga mos, to'g'ri keladigan, aynan bir xil ma'no anglatadigan ekstralingvistik vositalar kiritilishi lozim bo'ladi. Kommunikatsiyaga tegishli zarur talab natijasida nutqiy ifodalar ortiqchaligini kamaytirishni shu darajaga olib borish mumkinki, bunda mulqotni mana shu vositalarsiz davom ettirishning iloji bo'lmay qoladi, ana shu sharoitda ekstralingvistik vositalar til birliklariga qaraganda boshqacharoq yo'nalishda bu ifodalarning o'mini to'ldiradi [6].

Nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishi ibtidoiy odamlarda imo-ishoralarni tasvirlovchi hamda ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlaydi. Ibtidoiy odamning tili, aslini olganda, ikki xil tildir: birinchi tomondan, so'z tili,

ikkinchi tomondan, imo-ishora tili. Ibtidoiy odamlar tili predmet obrazlarini ifodalaydi, bu obrazlarni ular o'z ko'zi va qulog'i bilan qanday tasavvur etsa, shunday ifodalaganlar. Har bir jumla murakkab shaklda bo'lib, unda imo-ishora, tovushlar birlashgan [7]. Ammo mazkur fikrlardan kommunikatsiyada noverbal vositalar verbal vositalarga nisbatan oldinroq qo'llanilgan, deb bo'lmaydi. Noverbal vositalar hamma vaqt tovush tiliga ega bo'lgan kishilar uchun ikkinchi darajali vazifa bajaradi. Bu vositalar ko'rsatish, ekspressiv xarakterda bo'lishi mumkin, ammo o'zicha tushunchalarni nomlay va ifodalay olmaydi. Faqat shunday funksiyaga ega bo'lgan so'z tilini kuzatib boradi [2]. Haqiqatan ham, tarix, tovush tiliga ega bo'lmagan birorta ham kishilik jamiyatining, hatto eng qoloq kishilik jamiyatining bo'lganini bilmaydi. Tovush tili insoniyat tarixida kishilarning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishiga, jamiyat bo'lib birlashishiga, o'z tafakkurini takomillashtirishiga, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishiga, tabiat kuchlari bilan muvafaqqiyatli kurash olib borishiga va shu tariqa hozirgi zamon taraqqiyot darajasiga yetishiga yordam bergan kuchlardan biridir. Noverbal vositalar esa doimo nutq bilan birgalikda qo'llanib, unga yordam beruvchi ikkinchi darajali vosita bo'lib kelgan. Chunki fikr o'zining ma'lum moddiy asosiga (qiyofasiga) ega bo'lishi kerak. Ana shu moddiy asos (qiyofa) nutqdir. Nutq faqat fikr ifodalovchi vositagina emas, balki fikrni shakllantiruvchi vosita hamdir [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy muloqot deganda, muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalarning hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi. Bu nutqiy muloqotning birinchi o'ziga xosligidir [10]. Masalan, "Assalomu alaykum" lisoniy vositasi quyidagi kinetik vositalar: ikki qo'lni ko'ksiga qo'yish, boshni quyi solish, qomatini biroz egish kabi harakatlar bilan hamrohlikda voqelanadi. Shunday qilib, nutqiy muloqotni oddiy nutqdan – lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishidan – farqlovchi muhim omil sifatida murakkabligini va uning verbal hamda noverbal vositalarning o'zaro uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan butunlik ekanligini ko'rsatish mumkin [9]. Darhaqiqat, noverbal vositalar nutqiy muloqotning muhim bir qismi hisoblanib, ular nutqiy jarayonda turli ehtiyojlar sababli yuzaga chiqadi va nutqiy muloqotda ma'lum vazifani bajaradi.

Diskurs atamasiga ta'rif berish uchun quyidagi ta'rifdan foydalanamiz: diskurs – og'zaki va noverbal belgilarda muhrlangan odamlarning ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonidir.

Ijtimoiy guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum tartibini nazarda tutuvchi har bir ijtimoiy institut shaxslararo muloqotni o'rnatish uchun o'ziga xos strategiya va taktikaga ega; u muayyan o'zaro ta'sir holatlarini bajaradigan vazifalar bilan tuzilgan. Shunday qilib, nutq vositalarining bir to'plami harbiy nutqni, ikkinchisi – tibbiy, pedagogik, huquqiy, diniy va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Axborot uzatishning mutlaqo mustaqil kanali sifatida his-tuyg'ular tili nafaqat so'z bilan parallel ravishda, balki unsiz holda – xitob, yig'lash, qahqaha shaklida ham ishlatilishi mumkin. Ular his-tuyg'ular tilining yuz mushaklarining harakati (yuz ifodalari), bosh, oyoq va tananing harakatlari (pantomimika)ni o'z ichiga olgan ta'sirchan harakatlardir. Tajribali his-tuyg'ular erkin va ba'zan insonning irodasiga qarshi, yuz ifodalarida va pantomimikada avtomatik ravishda aks ettiriladi hamda insonning holatini ko'rsatadi. Vaholanki, "odamlar suhbat jarayonida o'zlari aytmoqchi bo'lgan fikrning 7 foizinigina so'z orqali, qolgan 38 foizini ohang va 55 foizini imo-ishora orqali bayon etar ekanlar"¹. Shunday qilib, his-tuyg'ular tili nafaqat o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga, balki

boshqalarning hissiy tajribalarini ham tushunishga imkon beradi.

Har bir tilda muloqot o'ziga xos milliy xususiyatlarga egaligi sababli, chet tilida mukammal so'zlash uchun, faqat til xususiyatlari – fonetik, leksik, grammatik jihatlarini nutqda to'g'ri talqin qilish bilan chegaralanmay, shu xalqqa xos milliy nutq etiketini ham bilish talab etiladi. Muomala jarayoni faqat nutqning mazmuni bilan chegaralanmaydi, ba'zan axborotning juda ko'p qismi suhbatdoshlarning milliy etiketlariga xos bo'lgan lisoniy vositalar va nolisoniy vositalar, shuningdek, milliy-madaniy aloqa vositalari bilan beriladi¹.

Nutqiy muloqotning noverbal vositalari – yuz ifodalari, imo-ishoralar, ko'z bilan aloqa qilish, intonatsiya – qae'da va kim bilan muloqot qilishimizdan qat'iy nazar umumbashariydir. Ammo har bir mamlakat madaniyati o'z qonunlariga ko'ra rivojlanadi va har bir mamlakat noverbal muloqotning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlarni bilish har bir kishiga "xorijiy hudud"¹ bo'yicha suhbatdosh bilan muloqotni samarali yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ma'lumki, har qanday xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlar, diniy e'tiqodi, borliq olam haqidagi qarashlari uning tilida unga yondosh bo'lgan noverbal vositalarda namoyon bo'ladi. Chunki har bir xalqning tili singari xalq vakillari muloqotiga xos bo'lgan paralingvistik vositalar ham ma'lum ma'noda uning o'zligini aks ettiradi.

Milliy xarakterdagi noverbal vositalar ma'lum xalq, millat yoki elatlar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar sanalib, ishlatilish ko'lamining chegaralanganligi bilan xarakterlanadi. Bunday noverbal vositalar milliy xususiyatlarni o'zida gavdalaniradi, urf-odatlar, ritual va adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo'ladi, ijtimoiy xarakter kasb etib, har bir millatda muayyan urf-odatlar, lingvomadaniy xislatlar asosida har xillikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun har qanday tilda mavjud bo'lgan noverbal vositalarni lingvomadaniy jihatdan yaxlitlikda o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Qo'l berib ko'rishish ham turli millat va madaniyatlarda turlicha amalga oshiriladi. Shimoliy Yevropa aholisi qo'l berib ko'rishganda bir-birlarining qo'llarini juda qisqa muddat qisishadi va darhol qo'yib yuborishadi. Janubiy Yevropa, Markaziy va Janubiy Amerikada esa uzoq muddat qo'l siqishish odatiy holdir. Hattoki qo'l berib ko'rishish asnosida chap qo'l bilan suhbatdoshning qo'lini yoki bilagini ushlash ham ko'p uchraydi. Afrika davlatlarida odatda qo'l uchida yengil ko'rishiladi¹.

Yaqin Sharqda qo'l berib salomlashish juda keng tarqalgan. Arablarda ham qo'l berib ko'rishishdan tashqari peshonasiga qo'l kafti bilan tegib, sal ta'zim qilishadi. Keksa kishi suhbatdoshiga o'z hurmatini ko'rsatib, qo'l siltagach, avval kaftini o'padi va peshonasiga tekkizadi. Agar arab erkaklar uzoq vaqt bir-birlarini ko'rmagan bo'lsalar, uchrashganlarida yelkalarini quchoqlab, o'padilar. Ular bir-birini quchoqlashib, uzoq vaqt turib qolishsa, bu uzoq ajralishdan so'ng ko'rishganlik, yaqinlik va quvonch ma'nolarini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. O'zbeklar biron narsadan hayratlanib, qoyil qolib, "zo'r!" demoqchi bo'lishsa, ko'pincha, "O'o'o!" his-hayajonli vositasi orqali ifodalashadi, nemislar esa buni o'ziga xos intonatsiya bilan "Ui!" (Ui!) deyishadi. Nemislar so'zlovchiga aytib o'tilgan biror bir voqea yoki hodisadan juda ham afsusda ekanligini izhor etib, "Oje!" (O'ye!) desa, bu holat o'zbeklardagi biroz cho'zib aytilgan "Vooy" ga to'g'ri keladi. Nemislar "Diqqat!", "Hushyor bo'ling!", "Eshitsangiz-chi!", "Nima gap o'zi?", "Bir daqiqa!" degan so'zlardan oldin "Hey!" (Xey!) deb murojaat qilishadi, bu holat o'zbeklarda ham "Hoy" yoki "Ey" tarzida ifodalanadi [9]. O'zbeklarda qo'l berib ko'rishish qisqa bo'ladi. Lekin qat'iy va g'ayratli qo'l siqish yengil va yumshoq qo'l siqishdan afzal

hisoblanadi. Alohida hurmat belgisi sifatida ikki qo'l bilan ko'rishiladi. Masalan, — Dastasha gir, — dedi Rahim. Sharif bilan Qobilg'a ikki qo'lini cho'zib, ular ikkisi ham iljaygan ko'yi qo'llarini berdilar (A.Qodiriy).

Noverbal vositalardan foydalanishda madaniyatlararo farqlanishlar mavjud bo'lishi bilan birgalikda, ularning hamma madaniyatlarda bir xil tushuniladigan turlari ham mavjud. Butun dunyoda odamlar hursandchilikdan kuladilar va g'azablanganda, xo'mrayadilar. Masalan, salomlashishning quyidagi ko'rinishlari hamma madaniyatlarda uchraydi:

- bir-biriga yaqin kelish va ko'ziga to'g'ri qarash;
- qoshlarning ko'tarilishi;
- tabassum;
- ko'zlar aloqasi;
- bir-biriga ozgina tegish;
- ochiq qo'lni namoyish etish;
- bosh harakati yoki ta'zim qilgan kabi boshni egish.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, paralingvistik vositalarni o'rganishda lingvokulturologik yondashuv dolzarflik kasb etadi. Kommunikantlar ma'lum tilni to'la bilgan bo'lsalar-da, milliy madaniyatlaridan, urfodatlaridan, milliy shakllangan holatlardan bexabar bo'lsalar, ular bir-birlarini to'liq tushunib yetolmaydilar. Shuning uchun ham har bir xalq noverbal vositalarini alohida-alohida o'rganish xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga katta yordam beradi va shaxslarda noverbal vositalar madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Til inson fikrini ifodalashning asosiy va tabiiy shakli hisoblanadi. Shu ma'noda, u fikr ifodalashning yagona va etarli vositasidir¹. Biroq, bu aloqa jarayoni muayyan aloqa holatidan ajralib turishini anglatmaydi. Muloqot ishtirokchilari uchun so'zlovchining ovozi va uning imo-ishoralari, yuz ifodalari, so'zlashuv jarayonida qo'llaniladigan so'z birikmasi ham muhimdir. Ushbu vositalar bilan ifodalangan hissiy ma'lumotlar intellektual jihatdan qo'shimcha bo'lib, har qanday aloqa jarayonining majburiy elementini ifodalaydi, ko'pincha bu jarayonni aniqlaydi. Shuningdek, insonning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri muayyan hissiy bo'yogga ega bo'lib, muloqot jarayonida kommunikantlarning his-tuyg'ulari tabiiy ravishda namoyon bo'ladi. Nutq so'zlash bilan birga kelgan bu hissiy munosabat axborot almashishning og'zaki bo'lmagan jihatini – noverbal muloqotni shakllantiradi.

O'zbek madaniyatida salomlashish 2 daqiqadan 5 daqiqagacha davom etadi, salomlashuv so'zlaridan keyin, albatta, suhbatdoshning ahvoli, mehnat faoliyati, oila

a'zolarining umumiy ahvoli haqida so'raladi. O'zbeklar tez fursatda hol-ahvol so'rab ketib qolishdan istihola qiladilar yoki ushbu holatni hurmatsizlikka yo'yishadi. Salomlashish jarayoni paralingvistik vositalar (qo'l uzatib ko'rishish (erkaklarda), yuz urishtirib, yelkaga qoqib, qo'ldan ushlab ko'rishish) bilan hamohang tarzda olib boriladi. Salomlashishda emotsiya ham rol o'ynaydi, ya'ni ochiq chehra bilan tabassum qilib, ochiqko'ngillilik va o'ta samimiyat bilan so'rashiladi. Suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa 60-80 sm ni tashkil etadi [3. 105-b]. Uzoq Sharq madaniyatida, aksincha, suhbat chog'ida tegish darajasining pastligi va masofaning uzoqligi kuzatiladi. Yapon, koreys va xitoyliklarning muloqotida suhbatdoshga juda yaqinlashish, qo'l tegizish, uni quchoqlash, o'pish kabi harakatlari xushlanmaydi.

O'zbeklarda oila a'zolari, qarindosh-urug'lari yoki do'st-birodarlari bilan agar uzoq muddat ko'rishmagan bo'lsa, quchoqlashib ko'rishadilar, oddiy hollarda oila a'zolari bilan qo'lini ko'ksiga qo'yib, "Assalomu alaykum", deb so'rashiladi. Ayollar bilan erkaklarda salomlashish biroz farq qiladi. Rasmiy doiralarda jinsidan qat'i nazar qo'l berib salomlashiladi. Norasmiy doiralarda ayollar bir qo'llarini yoki ikkala qo'llarini bir-birlarining yelkalariga qo'yib salomlashsalar, erkaklar qo'l berib yoki quloch ochib salomlashadilar. Hozirgi kunda yosh yigitlar salomlashishda qo'l berishdan tashqari, boshlarini bir-birlariga urushtirib salomlashishlari odat tusiga kirmoqda.

"Islom dini o'z ta'sirini o'tkazgan O'rta Osiyo xalqlari ayollaridagi tobelik, andisha ular o'z fikrini ifodalaganlarida past ovozda, sekin gapirishlariga ta'sir etgan. Natijada, ularning nutqlarida tobelik, mutelik ifodalovchi ovoz ohangi hukmron bo'lgan" [3]. Masalan, – Yoshlik qilibsiz, aylanay. Bilmabsiz. U ashulachi qizning dovruqi dunyoni bosdi... Hammaning og'zida o'sha (Cho'lpon).

Xulosa va takliflar. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqotning samarali bo'lishida faqat so'zlarga asoslangan vositalar orqali fikr ifodalash yetarli bo'lmaydi. Muloqot jarayonida, o'quvchilardan tashqari tomoshabinlarga ham mo'ljallab yozilgan kinoqissalar matnida noverbal vositalar ham faol ishtirok etib pragmatik vazifa bajarishga xizmat qiladi. Sosiolingvistika, sosiopragmatika sohalarida noverbal vositalar orqali suhbatlashish holatini maxsus ilmiy tadqiq etish bilan ham shug'ullanishi lozim. Zero, insonlar oddiy so'zlashuv jarayonida bir-birlarini asosan, ko'z qarashlaridan, yuz holatidan, hatto o'zbek xonadonlarida ro'molning qanday o'ralgani va do'ppining qanday kiyilgani ham muloqotga katta ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 3-47.
2. Жеребило Т. В. Словар лингвистических терминов / Т. В. Жеребило. – Назран: Пилигрим, 2005. – 376 с.
3. Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari): fals..f.d-ri diss...-T., 1996.-B.105
4. Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17: Теория речевых актов. – М., 1986. – С. 55-59.
5. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 31-39.
6. Серл Дж.Р. Классификация иллюкутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17: Теория речевых актов. – М., 1986. – С. 88-89.
7. Солганик Г.И., Милих М.К., Вомперский В.П. Стилистика газетных жанров. – М., 1981. – С. 78.
8. Xolmatova V. Pragmatika tushunchasining talqini haqida // Xorijiy filologiy. – Samarqand, 2019. – B. 45-49.